

XALQ OG'ZAKI DOSTONLARIDA AYOLLAR OBRAZI**Maxmarejabova Dildora Shavkat qizi**

Termiz iqtisodiyot va sevis universiteti talabasi.

Ergashova Rayxon O'tkirovna

Ilmiy rahbar: TISU o'qituvchisi.

Dildorashavkatovna91@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.18315219>

Anonatsiya. Jamiyatda ayollar o'rni kattadir. Ushbu tezisda xalq og'zaki dostonlarida ayollar obrazining yaratilish usullari, ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni, ma'naviy va axloqiy fazilatlari tahlil qilinadi. Tezisda "Alpomish", "Shahriyor" kabi dostonlarda ayol qahramonlik misolida milliy mentalitet va qadriyatlar ifodasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xalq og'zaki ijodi, doston, ayollar obrazi, ideal ayol, ayol sadoqati, matonat, ma'naviyat

THE IMAGE OF WOMEN IN FOLK EPICS

Abstract. The role of women in society is great. This thesis analyzes the methods of creating the image of women in folk oral epics, their role in social life, and their spiritual and moral qualities. The thesis analyzes the expression of national mentality and values on the example of female heroism in epics such as "Alpomish" and "Shahriyor".

Keywords: Folklore, epic, image of women, ideal woman, female loyalty, fortitude, spirituality

ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В НАРОДНОМ ЭПОСЕ

Аннотация. Роль женщины в обществе велика. В диссертации анализируются способы создания образа женщины в народном устном эпосе, её роль в общественной жизни, духовно-нравственные качества. В диссертации анализируется проявление национального менталитета и ценностей на примере женского героизма в таких эпосах, как «Алдомиш» и «Шахриёр».

Ключевые слова: Фольклор, эпос, образ женщины, идеальная женщина, женская верность, стойкость, духовность.

O'zbek xalq og'zaki ijodi-xalqning ko'p asrlik hayotiy tarjibasi, axloqiy qadriyatlari, orzu-umidlari va estetik qarashlarini o'zida mujassam etgan bebaho merosdir. Bu merosning eng yirik janrlaridan biri-xalq dostonlaridir. Dostonlar xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti urf odatlari, vatanparvarlik, sadoqat, muhabbat, do'stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni aks ettiradi.

Shu jarayonda ayollar obrazi alohida o'rin egallaydi. Xalq dostonlarida ayol nafaqat muhabbat timsoli, balki aql-zakovat, sadoqat, jasorat va fidoyilik sifatida tasvirlanadi. Ular xalqning axloqiy me'yorlarini ifodalaydi, milliy qadriyatlar targ'ibotchisiga aylanadi. Shu o'rinlarda ayollarning ayyorlik obrazlari ham bo'lgan. Ushbu tezisda xalq og'zaki dostonlaridagi ayollar obrazining shakllanishi, ularning badiiy funksiyasi hamda xalq dunyoqarashidagi o'rinini tahlil qilinadi. Ayollar obrazining xalq og'zaki ijodidagi o'rni.

Xalq og'zaki dostonlarida ayollar obrazi qadimdan muhim badiiy va ma'naviy timsol bo'lib kelgan. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Malika ayyor", "Shahriyor" kabi dostonlarda ayollar obrazlari turli xil fazilatlar orqali yoritiladi. Ular turmush o'rtog'iga sadoqatli, farzandlariga mehribon bo'lishi, ota-onasiga hurmatli, ba'zida erkaklarga kuch berib turishi, ba'zan erkak qahramonlar qatori jasorat ko'rsatadi. Shu o'rinda ba'zi dostonlarda ayollarning ayyorlik, o'z mavqeyini o'ylaydigan, hasatgo'ylik obrazlarini ham ko'rsak bo'ladi.

Jasoratli, aytgan so'zida turadigan ya'ni, xalq idealidagi ayol obraziga "Alpomish" dostonida Barchinoyni misol qilib olsak bo'ladi. U go'zallik bilan bir qatorda aql-farosat, vatanparvarlik, mardlik kabi xislatlarga ega.

Barchinoyning Alpomishga sadoqati, u yo'qligida sabr bilan kutishi, hatto dushmanlar qarshisida ham or-nomusini asrashi-o'zbek ayollarining ma'naviy qiyofasini ifodalaydi.

Ayyorlik obraziga keladigan bo'lsak, shu Alpomish dostonidagi Surxayil kampir Alpomishni Qalmoqshohga ushlab berish uchu hiyla ishlatadi. Shahriyor dostonida Gulsorani kundoshlarining hasadgo'yiligi tufayli ayyor kampirga pul berib Gulsoraning farzandlarini daryoga tashlab yuborib, Gulsoraning qo'yniga it bilan mushuk bolalarini olib kelishini aytsak bo'ladi. Alpomish dostonida Qaldirg'ochoyimning obraziga tavsif berilsa u akasi ya'ni Alpomishga kuch berishi, qo'llab-quvatlashi, Barchinoy uchun kurashishi uchun yordam berganini aytsak bo'ladi.

Shahriyor dostonida Anjim ham akasi Shahriyorga otasidan ot olib berishini aytsak bo'ladi. Ayol abrazi orqali xalqning axloqiy va estetik qarashlari. Xalq dostonlarida ayol obrazining badiiy talqini orqali xalqning axloqiy dunyoqarashi, esteti didi, hayot falsafasi namoyon bo'ladi. Ayol-mehr, sadoqat, or- nomus timsolidir. Dostonlarda ayolning sadoqatsizligi yoki xiyonati keskin qoralanadi, sadoqatli ayollar esa yuksak darajada madh etiladi. Bu jihatdan ayol obrazi xalqning axloqiy tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi.

Ayol jasorati va erkak qahramonlar bilan tenglik g'oyasi.

Ba'zi dostonlarda ayollar erkaklar bilan teng ravishda harakat qiladi, dushman qarshisida mardlik ko'rsatadi. Masalan: Alpomish dostonida yori uchun Barchinoy to'qson alplarga qarshi chiqishi. U nafaqat go'zal, sadoqatli balki mard ayol obrazida gavdalanadi. Bu holat o'zbek xalqining qadimiy davrlaridayoq ayolni jamiyat hayotida faol, mustaqil shaxs sifatida ko'ra olganini ko'rsatadi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Oxunjon Safarov "O'zbek xalq og'zaki ijodi"
2. Musoqulov A. "O'zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati".
3. "O'zbek xalq og'zaki ijodi" Toshkent "Yangi nashr" 2019.
4. Malikai ayyor "O'zbek xalq og'zaki ijodi" Toshkent 2024